

ZULFIYANING AYRIM SHE'RLARIDA METAFORA

G'aniyeva Sevinch Erkin qizi,

O'zbekiston Finlandiya pedagogika instituti talabasi

sevinchganiyeva164@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoirasi Zulfiyaxonim Isroilovaning "Xalqimga aytar sozlarim", "Men tug'ilgan kun", "Muhabbat tongi kulganda" hamda "Mushoira" she'rlari matnida qo'llanilgan metafora hodisasini ko'rib chiqamiz. Metafora tasvirlanayotgan voqelikning mazmun-mohiyatni yanada yorqinroq aks ettirishga xizmat qiladigan ifoda tasvir vositasidir.

Kalit so'zlar. Metafora, she'riyat, o'xshatish, qiyoslash, obraz.

ZULFIA'NIN BAZI ŞİİRLERİNDE METAFOR

G'aniyeva Sevinç Erkin kızı,

Özbekistan Finlandiya pedagoji enstitüsü öğrencisi

Özet. Bu yazıda Özbekistan halk şairi Zulfiyakhanım İsraилоva'nın "halkıma sözlerim", "Doğdum", "aşk sabahı gülerken" ve "mushaira" şiirlerinin metninde kullanılan metafor olgusunu ele alacağız. Metafor, anlatılan gerçekliğin içeriğini ve özünü daha canlı bir şekilde yansıtmaya yarayan etkileyici bir görüntü aracıdır.

Anahtar kelimeler. Metafor, şiir, benzetme, benzetme, imge.

МЕТАФОРЫ В НЕКОТОРЫХ СТИХАХ ЗУЛЬФИИ

Ганиева Севинч Эркин кизи,

студентка Узбекско-Финского педагогического института

Аннотация. В этой статье мы рассмотрим феномен метафоры, использованный в тексте стихотворений народной поэтессы Узбекистана зульфийахоним Исраиловой "Халыме Айтар созларим", "когда я родился", "когда смеялась Заря любви" и "Мушойра". Метафора-средство выразительного изображения, служащее для более яркого отображения содержания изображаемой действительности.

Ключевые слова. Метафора, поэзия, сравнение, сравнение, образ.

METAPHOR IN SOME OF ZULFIA'S POEMS

Ganiyeva Sevinch Erkin qizi,

student of the Uzbek-Finnish pedagogical institute

Annotation. In this article we will consider the phenomenon of metaphor used in the text of the poems of the people's poet of Uzbekistan Zulfiyakhanım İsraилоva "my words to my people", "I was born", "when the morning of love laughs" and "mushaira". Metaphor is an expressive image tool that serves to more vividly reflect the content and essence of the reality being described.

Keywords. Metaphor, poetry, analogy, analogy, image.

Nutqimizda keng qo'llanadigan ma'no ko'chish usullaridan biri bu metaforadir. Metafora (grekcha metaphora-ko'chirish) - nutq mexanizmi, biror leksema denotatining tashqi, zohiriy o'xshashligi asosida boshqa ma'noni ifodalash uchun ishlatiladi [1]. Ushbu atama ilk bor Izokrat tomonidan "Evagorus" asarida qo'llanilgan. Ingliz olimi E. Ortoni kundalik hayotda metaforalardan

foydalanishning quyidagi uch asosiy sababini ko'rsatgan: 1) ular bizga qisqacha gapirishga yordam beradi; 2) ular bizning nutqimizni yorqin qiladi; 3) ular ifodalab bo'lmaydigan predmetni tasvirlashga yordam beradi [2].

Metafora bir predmetning harakat-holatini, xil-xususiyatining o'xshash tomonlarini boshqasiga ko'chirish orqali sodir bo'ladi. She'riyatda metafora badiiy tasvirning hamda ma'noning ifodalanishida tasirchanlikni oshiruvchi vositadir. U o'xshatishdan farqli o'laroq, biror narsa yoki hodisani boshqa narsa bilan bevosita qiyoslash orqali yangi obraz yaratadi. Metafora o'quvchini muayyan tuyg'u yoki fikrni noan'anaviy o'ziga xos shaklda idrok qilishga undaydi. Metafora she'riyatga nafasat bag'ishlab o'quvchini tasavvur va his qilishning yangi olamlariga olib kiradi. Shu bilan birga, har bir metafora o'zida ijodkorning dunyo qarashini aks ettiradi [3].

Taniqli o'zbek shoirasi Zulfiyaxonim Isroilova zamonaviy o'zbek she'riyatining nafis vakilasi sifatida so'z sehri bilan ko'ngillarni rom etgan, qablarga nur bag'ishlovchi ijodkordir. Uning asarlari gul yaproqlari kabi nozik, ammo bamisoli tog'lar kabi haybatli, ulug'vor. U yurak to'ridagi tuyg'ularni nafis ohang bilan bezab, har bir so'zni mehr bilan yoza olgan adibadir. Zulfiyaxonim ijodida hayotning mazmuni, insoniylikning ulug'ligi, muhabbatning beg'uborligi, Vatan va xalqqa sadoqat timsoli jo'sh urib turadi. Uning so'zlari dildan chiqqan, she'rlari esa yuraklarga sirli sehr kabi o'rnashib qoladigan badiiyat durdonalaridir.

Zulfiyaxonim she'rlari matnida metafora hodisasiga kop o'rinda duch kelamiz. Bu jarayonda metafora chuqur mazmunni aniqlashuviga badiiy ifodani boyishiga xizmat qiladi. Metafora harakat-holat xil-xususiyatning ikki predmet ortasidagi shakliy o'xshashlik, shu predmetning joylashish o'rni kabi ma'no ko'chishlarida o'z ifodasini yaqqol namoyon qila oladi. Aynan, shoiraning "Xalqimga aytar so'zlarim" she'rida quyidagi metaforalarni ko'rishimiz mumkin.

*O'zing tashna etding o'zing suv tutding,
Qalbmimdagi **sahrom**, **daryomsan** xalqim!
Seni seva-seva men **boyib ketdim**,
Dunyo ichra topgan **dunyomsan**, xalqim.*

Zulfiyaxonim "Qalbmimdagi **sahrom**, **daryomsan**, **xalqim**!" deya keltirgan jumlasida metaforaning yaqqol namunasini ko'rish mumkin. Misralarda xalq shoiraning yuragidagi cho'l va daryo sifatida tasvirlangan. Cho'l tashnalik, sog'inch va ehtiyojni anglatga, daryo esa hayot, baraka va to'kinlikni ifodalaydi. Bu orqali shoira birinchi misraga javoban xalqining og'ir dardi, hasratlari bilan yashashini, shu bilan birga uning kuch-qudratidan bahramand ekanini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, keyingi misradagi "Seni seva-seva men **boyib ketdim**" tushunchasida "boyib ketdim" iborasi moddiy boylik emas, balki ma'naviy boylikni anglatadi. Bu esa shoiraning xalqini sevib, unga xizmat qilib ruhiy jihatdan yuksalganini, o'ziga rag'bat olganinitasvirleydi, naqadar vatanparvarlik!

Shoiraning "Men tug'ilgan kun" she'ri matnida ham quyidagi metaforik birliklar uchraydi.

***Qora terda tanho boshingiz,**
Labingiz-dasht jo'yagiday qoq.
Og'zingizga tiqib sochingiz,
Tanangizga solarlar to'lg'oq.*

Ushbu to'rtlikda shoira onasining uni dunyoga keltirishda qiynalganini, birinchi misradagi "Qora terda tanho boshingiz" iborasi orqali bilish mumkin. Hamda ikkinchi bandda "Labingiz-dasht jo'yagiday qoq" tasviri orqali onaning lablari dashtdagi jo'yaning (shudring tushmaydigan, quruq yerni bildiruvchi) qattiqligiga o'xshatilgan "Dasht jo'yagi" – qirg'oqchilik, tashnalik va hayotsizlik ramzi. Shoira onasining lablarini shu tasvirga qiyoslab, u insonning hayotdagi mashaqqatlarini va hissiy qirg'oqchiligini ifodalaydi. U "qoq" ya'ni qattiq, quruq va his-tuyg'usizdir. Bu odamning ruhiy va jismoniy holdan toyganini anglatadi. Ushbu to'rtlikda shoira onasining azob chekkanini ifodalasa, she'r xulosasida onasiga shuncha dard azob berishining sababini uning yuzini ko'rish uchun, ko'zlariga boqish uchun shoshgani bilan ifodalaydi. Yakunida esa barchasi uchun onasidan uzur so'raydi, chunki, shoira ham ona bo'lib bu azoblarni tushinib

yetganini aytadi va "Ona bo'lmoq - azobli huzur" degan iqrar bilan she'rini yakunlaydi.

Zulfiyaxonimning "Muhabbat tongi kulganda" nomli she'rida ham metaforalarni uchratish mumkin.

*Bulutlarning yorib quchog'in,
Oy ko'rsatdi olmos yuzini.
Mag'rur tashlab yerga nigohin,
Tinglab qoldi yigit so'zini.*

Shoira ushbu to'rtlikda oyni o'xshatishlar orqali ta'riflagan. Birinchi misrada "Bulutlarning yorib quchog'in" iborasi orqali qora zulmatning yo'qolishi, ya'ni yorug'likning paydo bo'lishi aks etgan. Buni esa erkinlik, yorug'lik sari talpinishga misol qilib olsak bo'ladi. Ikkinchi jumladagi "Oy ko'rsatdi olmos yuzini" metaforasida oyning olmosga o'xshatilishi aks etgan. Bu yerdagi metafora orqali oy yuzasining yorqinligi va tiniqligi ta'riflangan. Oyni yorug' va tiniqligi olmosga o'xshatilgan. Keyingi misradagi "Mag'rur tashlab yerga nigohin" iborasi orqali oyda jonlantirish aks etgan. Bu qizning g'urur bilan ko'zini pastga qaratishini bildiradi. "Mag'rur tashlab" iborasi uning hissiyotlari bilan kurashayotgani, sevgini tan olishga ikkilanishini anglatishi mumkin.

Zulfiyaning barchaga tanish va sevimli bo'lgan "mushoira" she'rida ham metaforadan unumli foydalanilgan.

*Sahnaga chiqardi sipo va vazmin
Chinor ham nihol ham she'r chamanida
Keksa-yu yosh, ota-yu farzandday yaqin
Yonma-yon do'stlikning bu bayramida.*

She'riy parchaning birinchi misrasida sahnaga og'ir va yengil tabiatli insonlarning chiqishi tasvirlangan. Umuman olganda, to'rtlikdagi "chinor" va "nihol" so'zlari orqali o'xshatish ifodalangan, ya'ni chinorni og'ir tabiatli, niholni esa yengil tabiatli insonga qiyoslanmoqda. Keyingi misralarida esa chinor keksa inson, ota obraziga o'xshatilgan. Nihol esa yosh bolaga va farzandga qiyoslangan. Ushbu she'rda xalqaro adabiy uchrashuvlarning jo'shqin muhiti tasvirlangan. Unda turli millat vakillari she'riyat orqali bir maydonga jam bo'lib, san'at va mahorat bayramini nishonlaydilar. Bu mushoira she'ri davomida qofiya, so'z va misralar bahsi yuraklarni birlashtiradi, uzoqdagi do'stlarni yaqin qiladi. She'r sharq she'riyatining boy an'alarini, shoirlarning musobaqasi va do'stlik rishtalarini ulug'laydi. Zulfiya bu asari orqali san'atning insonlarni birlashtirishdagi qudratini, she'riyatning xalqaro ahamiyatini yuksak pardalarda tarannum etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Zulfiya she'riyati o'zbek adabiyotida yuksak badiiy mahorat, poetik ifoda va go'zallik timsolidir. Uning she'rlarida ishlatilgan metaforalar nafaqat estetik zavq bag'ishlaydi, balki chuqur falsafiy mazmunni ham o'zida mujassam etadi. Shoira metaforalarni inson ruhiyati, milliy qadriyatlar, ona yurtga sadoqat va ona timsolidagi mehr-muhabbatni ifodalashda ustalik bilan qo'llaydi. Ayniqsa, "Xalqimga aytgan so'zlarim", "Men tug'ilgan kun", "Muhabbat tongi kulganda" va "Mushoira" kabi she'rlarida metaforik ifodalar orqali zamon, xalq, ona, yoshlar, yorug'lik kabi tushunchalar obrazli va hissiy ranglar bilan berilgan.

Zulfiya metaforalar orqali o'quvchini o'z fikr dunyosiga yetaklaydi, uni nafaqat voqelikni idrok qilishga, balki uni yurak orqali anglashga chorlaydi. Shoira o'z xalqining og'ir kunlari, ona azobi, erkinlik va sahna go'zalligini chuqur his qilib, ularni badiiy metaforalar orqali ifodalaydi. Bu esa Zulfiya she'riyatining kuchli ta'sirchanlik kuchi va yuraklarga yo'l topish sirini ochib beradi. Shunday qilib, Zulfiya she'riyati o'zbek adabiyoti xazinasida bebaho durdonalardan biri bo'lib, unda qo'llanilgan metaforalar nafaqat badiiy go'zallik, balki inson qalbidagi eng nozik tuyg'ularni ifodalash vositasiga aylangan. Shoira ijodining badiiy yuksakligi ham aynan shu oddiy so'zlar orqali teran ma'no yuklashda namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Raupova L.R., Qurbonova M.M., Abuzalova M.Q., Yo'ldosheva D.N. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: "Zebo Print" nashriyoti, 2021. – 387 b.

2. Jo'rayeva B., Sharipova O. Metaforaning tilshunoslikda namoyon bo'lishi. – Buxoro, 2017. – 148 b.
3. Anorqulova, O. N. K. (2021). Interpretation of the concept of father in some oral and written sources. *Current research journal of philological sciences*, 2(07), 20-24.
4. Yoqubov, I. (2025). Uzbek Spelling Rules: History, Principles, and Modern Applications. *Pedagogika, psixologiya va ijtimoiy tadqiqotlar jurnali*, 4(2), 20-26.
5. Erbo'tayeva, S. (2022). Some comments on the auxiliary wort. *Международный журнал языка, образования, перевода*, 3(6).
6. Kamol o'g'li, H. H. (2024, October). The Role of Auxiliary Words in the Formation of Phraseological Units. In *International Conference on Adaptive Learning Technologies* (Vol. 10, pp. 55-56).
7. Муродовна, Р. М. Использование водных объектов при проектировании ландшафтных объектов. *JournalNX*, 125-128.